

Qulto'rayeva Sarvinoz Bahodir qizi

A. Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti

2 – kurs tayanch-doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek toponimiyasida tasnif masalasi va bunda milliy til xususiyatlari, ularning paydo bo'lish motivatsiyalari, toponimlarning mavzeviy guruhlanishi, hajmi, ko'lami, paydo bo'lishining ijtimoiy-maishiy sabablariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Toponimika, joy nomlari, geografik nomlar, toponimlar, gidronimiya, oronimiya, oykonimiya, urbanonoomiya, mikrotoponimiya, etnotoponimlar, antrotoponimlar, etnooykonimlar.

Bir joyni ikkinchisidan, bir jilg'ani boshqa bir jilg'adan, bir ko'chani yonidagi ko'chadan, tog' - adirlami, shahar va qishloqlarni bir-birlaridan farq qilish uchun ham kishilar nomlar o'ylab chiqarilgan. Joy nomlari, geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi. Toponimlarni **toponimika** fani o'rganadi.

Toponimika *yunoncha topos — joy va onoma (yoki onima) — nom so'zlaridan tarkib topgan.* Joy nomlari ya'ni toponimiya bir necha turlarga bo'linadi. Bular: **gidronomiya** (*yunoncha gidro – suv*), ya'ni daryolar, ko'llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo'ltiqlar, bo'g'ozlar, sharsharalar nomlari; **oronimiya** (*yunoncha oros – tog'*), ya'ni yer yuzasining relief shakllari – tog'lar, cho'qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari; **oykonimiya** (*yunoncha oykos – uy*), polinimiya (*yunoncha polis – shahar*) yoki **urbanonoomiya** (*lotincha urbos – shahar*), ya'ni qishloq yoki shaharlarning nomlari, **mikrotoponimiya** (*yunoncha mikros – kichik*), ya'ni kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o'tloqlar, daraxtzorlar, jarlar, yo'llar, ko'priklar va hatto atoqli otga ega bo'lgan ayrim daraxt nomlari. Bundan tashqari, turli xalq urug'-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar **etnotoponimlar** (*yunoncha etnos – xalq*) deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa **antrotoponimlar** (*yunoncha antropos – odam*) deb atash mumkin. Toponimikani qaysi fanlar qatoriga kiritish kerak, degan munozara uzoq davom etdi.

Toponimika – shaharlar, qishloqlar, daryolar, ko'llar, tog'lar kabi geografik nomlarni, ularning kelib chiqishini, tarixini o'rganar ekan, bu fan tilshunoslarga ham, tarixchilarga ham boy ilmiy material beradi.

Geografik nomlar, ya'ni toponimlar til lug'at tarkibining bir qismi bo'lib, til qonuniyatlariga bo'ysunadi. Albatta, so'zni tilshunoslik – lingvistika fani o'rganishi kerak. Demak, toponimika – atoqli otlarni o'rganadigan **onomastika** fanining bir qismi bo'lib, tilshunoslik fanlari qatoriga kiradi.

Oykonimlar. Toponimikada viloyat, shahar, shaharcha, tuman, mahalla, qishloq, guzar, aholi punkti, ovullar, posyolka, qal'alarning umumiy nomi oykonim atamasi bilan ifodalanadi.

Oykonim – (yun. – oixod – oykos – turar joy, maskan+onoma – atoqli ot) – aholi yashovchi joylar, maskanlarning atoqli oti. Toponim turi. Oykonimika – toponimikaning oykonimlarning paydo bo'lishi va vazifaviy xususiyatlarini o'rganuvchi tarmog'¹.

Oykonimlar o'zi mansub bo'lgan hudud tarixini aks ettiruvchi asosiy vositalardan biridir. Ularda aholining etnik tarkibi – qaysi xalq, millat, urug', qavm, qabilaga mansubligi, kundalik turmush tarzi, qaysi kasb yoki hunar bilan mashg'ulligi, hududdagi biror geografik obyekt mavjudligi va boshqalar haqida ma'lumotlar mujassamlashgan bo'ladi.

Oykonimlar guruhiga shaharcha, mahalla, qishloq, ovul, guzarlar, kichik turar joy nomlari kiritildi. Ma'lum bo'ldiki, Sho'rchi tumani oykonimlarining paydo bo'lishida quyidagi nominatsion motivlar asos bo'lgan: urug' nomlari va ularning tarmoqlari, ya'ni etnooykonimlar: *Baxshitepa, Batosh, Bo'gajili, Dalvarzintepa, Qo'ng'iroq, Barlos*

Mustaqillik, istiqloq g'oyalarini ifodalovchi birliklar: *Barkamol avlod, Istiqloq, Mustaqillik, Bunyodkor, Vatanparvar, Do'stlik, Yangi O'zbekiston*

Biror bir inshoot yoki maskan nomi: *Yangibozor, Qo'shtegirmon, Qo'shko'prik, Yangiguzar, Kattaqo'rg'on*

Aholining ijtimoiy ahvolini ko'rsatuvchi birliklar: *Baliqchi, Chorvador, Sholikor, Hunarmandlar, Tabiblar, Baxshilar*

Belgi-xususiyatni ifodalovchi birliklar: *Kultepa, Yangiariq, Shakarko'l, Kattatepa, Qo'shtegirmon, Qoraariq, Olatemir, Oqkamar, Oqqo'rg'on, Jarqishloq, Yakkabog', Shakarko'l, Xushchekka, Katta Savur, Jarqishloq, Kichik Savur*

Joylashgan o'rniga ishora qiluvchi birliklar: *O'rta Dalvarzin, Yuqori Sovjiron, Quyi Sovjiron, Daraxt va o'simlik nomlari: Pistamozor, Yakkabog'*

Antroponim nomlar: *Alpomish, Ibn Sino, Alishe Navoiy, Bobur*

Oykonimlarning eng ko'p uchraydigan bir turi komonim, ya'ni qishloq nomlaridir. Tuman hududida mavjud komonimlarni leksik xususiyatiga ko'ra qishloq, mahalla, guzar kabi ma'naviy guruhlariga ajratish mumkin.

Sho'rchi tuman oykonimiyasida qishloq nomlarini anglatuvchi 10 ta toponim mavjudligi aniqlandi. Onomastik atamalar sirasida *komonim* tushunchasi mavjud. U qishloq (ovul) nomining yunoncha atalishidir.

Aytish lozimki, bu o'rinda qishloq so'zi sof atama ma'nosida qo'llangan. Agar "O'zbek tilining izohli lug'atiga" e'tibor qaratsak, unda qishloq so'ziga, "aholisi asosan qishloq xo'jalik ishlari bilan shug'ullanuvchi joy, maskan, hudud tarzida izoh berilgan"². Bugungi kunda toponimiya sohasida qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda *qishloq* tushunchasi *qishloq fuqarolar yig'inini* atovchi tushuncha sifatida qo'llanmoqda³.

Gidronimlar guruhiga daryo, ko'l, soy, kanal, sharshara, ariq, buloq, quduq, zovur, hovuz, suv ombori, nasos nomlari kiritildi. Ma'lum bo'ldiki, hududdagi gidronimlarning paydo bo'lishigida quyidagi nominatsion motivlar asos bo'lgan:

Kishi ismlari: *Rajabmiroxur, Polvonsoy*

Relyefiga ko'ra: Orqalisoy

¹ Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изохли луғати. – Н, 2006. –Б.58.

² Ўзбек тилининг изох луғати. 5 жилдли. 5-жилд. – Т.: ЎМЭ, 2007. –Б. 315.

³ <https://oldparliament.gov.uz/uz/laws/adopted/108/4680/>

Suvning oqish xususiyatini ifodalovchi birliklar: *Ko'lobariq*

Suvning xususiyatiga ishora qiluvchi birliklar: *Oqarbuloq*

Obyektning sun'iy yasalganligiga ishora qiluvchi birliklar: *Tos, Lotok, Simonka, Betonka*

Oronimlar guruhiga tog' va tog' tizmalari, cho'qqi, dara, tepa kabi toponimik obyektlarning nomlari kiritildi. Ma'lum bo'ldiki, tumandagi oronimlarning paydo bo'lishida quyidagi nominatsion motivlar asos bo'lgan.

Kishi ismlari: *Baqati*

Joyning tabiiy ko'rinishidan kelib chiqqan: *Do'lba*

Miqdoriyligi va relyefiga ko'ra: *Mingjar*

Relyefiga ko'ra: *Terssoy*

Tabiiy xususiyatiga ko'ra: *Qo'shcheka, Pastundara*

Nekronimlar guruhiga mozorlar, qabristonlar, ziyoratgohlar, muqaddas joylar, avliyolarning qadamjolari, masjidlarning atoqli otlari kiritildi. Hududdagi nekronimlarning atalishida quyidagi nominatsion motivlar asos bo'lgan:

geografik obyektlarning nomlari: *Boytepa, Dalvarzintepa, Azlartepa, Shoniyoztepa, Shoniyoztepa, Ko'ltepa, G'armatepa, Beshtom, Oqtosh, Qoqaydi, Pistamozor, Saksonkapa, Tamshush, Zarkamar*

aziz-avliyolar, muqaddas deb hisoblangan ziyoratgohlar nomlari: *Shayx Attor Valiy, Shayx Muhammad Sodiq, Bahouddin Naqshband, Sovjironbobo, Qorashayxbobo, Shahidbobo, Habibullaeshon, So'fobobo, G'ishtlibobo, Cho'pon ota, Hojibobo, Kapalibobo, Pardashahid (shahidlikka oid), To'qqiz Shahid, Aziz Avliyolar, Xo'ja Ahror Valiy*

ma'lum bir hududdan chetda ekanligiga ishora qiluvchi birliklar: *Yuqori Abu Bakr Siddiq, Sovjiron 1, Sovjiron 2, Yangikun, Yangidavr*

yerning tuproq tarkibini bildiruvchi birliklar: *Oqtosh (toshli hudud), Pistamozor, Oqmozor, Changal (o'rmonzo), Boytepa (boy, qalin, zichtepa)*

muqaddaslikka ishora qilib, xalq tabobatida ma'lum bir kasallik yoki dardga davo izlanib boriladigan joy nomlari: *Sovjiron (muqaddas hsaxs bilan bog'liq), Olatemir (afsonaviy tabib jangchi), Tolliota (muqaddas buloq), Xushchekka (avliyo sifatida e'zozlanadi)*

diniy tushunchani ifodalovchi birliklar: *Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Umar Ibn Xattob, Abu Bakr Siddiq, Abdulloh Ibn Mas'ud, Abdullah, Xristian, Besh tom (qadimda diniy hudud ma'nosi mavjud)*

fitonim nomlari: *Changal (o'rmon, o'simlik massiviga aloqador), Pistamozor (pista daraxti bilan bog'liq)*

Tadqiqotchilar toponimlarni tasniflashda turli-tuman jihatlarga e'tibor qaratganlar. Bunda, albatta, milliy til xususiyatlari, nomlarning turlari, ularning paydo bo'lish motivatsiyalari, hajmi, ko'lami, paydo bo'lishning ijtimoiy-maishiy sabablari, tarix, geografiya fanlari va boshqa omillar hal qiluvchi rol o'ynagan. Biz Surxondaryo viloyati mikrotoponimlarini tadqiq etishda o'zining

nisbatan mukammalligi bilan ajralib turadigan Z.Do‘simov, S.Karimov va S.Bo‘riyev, K.Nazarov va T.Enazarov kabi olimlarning tasniflariga tayanamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘uxati:

1. **Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Н, 2006. –Б.58.**
2. ¹ Ўзбек тилининг изоҳ луғати. 5 жилдли. 5-жилд. – Т.: ЎМЭ, 2007. –Б. 315.
3. ¹ <https://oldparliament.gov.uz/uz/laws/adopted/108/4680/>
4. **Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: Фан, 1978. –№ 1. –Б.17-20.**
5. **Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: Фан, 1978. –№ 1. –Б.17.**
6. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978. – Б.11.
- 7.

